G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1009
Шакаров Зафар Гаффорович	
TURIZM KLASSTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnnoza Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI.....	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES.....	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUJJATLASHTIRISH.....	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdammovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI.....	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKILOTLARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abdulkarimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	



MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI

Xusanova Gavhar

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti dekani o'rinbosari

ORCID: [0009-0008-7894-1851](https://orcid.org/0009-0008-7894-1851)

E-mail: xusanovagavhar27@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy qismi sifatida oziq-ovqat sanoatining o'rni va ahamiyati, uning rivojlanish holati hamda sohadagi zamonaviy tendensiyalar chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda oziq-ovqat sanoatining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, bandlik darajasiga ta'siri, investitsion faoliyatni kengaytirish va eksport salohiyatini oshirish yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek, sohaning barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar — texnologik modernizatsiya, innovatsion faoliyat, resurslardan samarali foydalanish va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari ilmiy asosda o'rganilgan. Maqolada oziq-ovqat sanoati tarmog'ining milliy iqtisodiyotdagi strategik roli va uning raqobatbardoshligini oshirish istiqbollari tahliliy yondashuv asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat sanoati, iqtisodiy rivojlanish, milliy iqtisodiyot, oziq-ovqat xavfsizligi, modernizatsiya, innovatsiyalar, eksport salohiyati, investitsiya faolligi, iqtisodiy barqarorlik, raqobatbardoshlik.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the role and significance of the food industry as an integral component of the national economy and examines the current trends in its development. The study highlights the share of the food industry in the gross domestic product, its impact on employment levels, and the main directions for enhancing investment activity and export potential. Moreover, the paper scientifically analyzes the key factors influencing the sector's sustainable development — including technological modernization, innovative activities, efficient resource utilization, and state support mechanisms. The article emphasizes the strategic role of the food industry in strengthening the national economy and explores promising directions for increasing its competitiveness. The findings of the study have considerable practical significance for ensuring national food security and enhancing economic stability.

Key words: food industry, economic development, national economy, food security, modernization, innovations, export potential, investment activity, economic stability, competitiveness.

Аннотация. В данной статье подробно рассмотрена роль и значение пищевой промышленности как составной части национальной экономики, а также проанализировано современное состояние её развития. В исследовании раскрыты доля пищевой промышленности в валовом внутреннем продукте, её влияние на уровень занятости, направления повышения инвестиционной активности и экспортного потенциала. Кроме того, на научной основе изучены факторы, обеспечивающие устойчивое развитие отрасли, такие как технологическая модернизация, инновационная деятельность, эффективное использование ресурсов и государственная поддержка. В статье отражена стратегическая роль пищевой промышленности в национальной экономике и перспективы повышения её конкурентоспособности. Полученные результаты обладают высокой практической значимостью для обеспечения продовольственной безопасности страны и укрепления её экономической стабильности.

Ключевые слова: пищевая промышленность, экономическое развитие, национальная экономика, продовольственная безопасность, модернизация, инновации, экспортный потенциал, инвестиционная активность, экономическая стабильность, конкурентоспособность.



KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, eng avvalo, ishlab chiqarish tarmoqlarining samaradorligiga, ayniqsa, oziq-ovqat sanoatining rivojlanish darajasiga bevosita bog'liqdir. Oziq-ovqat sanoati nafaqat aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, balki iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, bandlikni ta'minlash va eksport salohiyatini oshirishda ham muhim o'rin tutadi. Shu bois ushbu tarmoqni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish hamda mahsulot sifatini oshirish O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

So'nggi yillarda davlat tomonidan oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish va eksportni diversifikatsiya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash konsepsiyasi" hamda "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasi" doirasida qabul qilingan chora-tadbirlar tarmoqning texnologik yangilanishini jadallashtirish, innovatsion ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish va xalqaro sifat standartlariga mos mahsulot yetkazib berishni rag'batlantirishga qaratilgan. Bu esa oziq-ovqat sanoatining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rnini yanada mustahkamlab, uning raqobatbardoshligini oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oziq-ovqat sanoati faoliyatini xorijiy tadqiqotchilar — X. Bitner, P. F. Drucker, D. McKean, D. Mann, R. Sfaim, V. J. Stevenson, A. A. Tompson, F. Webster va boshqalar o'z ilmiy izlanishlarida keng yoritganlar. Ular sanoat sohasini, jumladan, oziq-ovqat sanoati faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish hamda soha rivojini vertikal va gorizontalar klasterli yondashuv asosida tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratganlar [1].

O'zbekiston Respublikasida ham oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishida qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mahalliy olimlardan B. Berkinov, I. Boboev, U. G'afurov, O. Ismailov, N. Sotvoldiev hamda O. Sh. Ismailovlarning izlanishlarida oziq-ovqat sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholash, ularning barqaror faoliyatini ta'minlash va boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Hududlar miqyosida esa oziq-ovqat sanoati korxonalarining moliyaviy va iqtisodiy salohiyati amaliy jihatdan tahlil qilingan [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, tarmoqqa investitsiyalarni faol jalb etish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Natijada, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada ortib, ichki bozorning barqaror ta'minoti, eksport hajmining kengayishi va mahsulot assortimentining boyishi kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, sohada ishlab chiqarish jarayonlarini yanada takomillashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va innovatsion faoliyatni kengaytirish zarurati mavjud. Bu esa tarmoqning raqobatbardoshligini yanada oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ko'tarish hamda oziq-ovqat mahsulotlari eksportini diversifikatsiyalash imkonini beradi.

Umuman olganda, oziq-ovqat sanoatining jadal rivojlanishi O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash, milliy oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va xalq farovonligini oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oziq-ovqat sanoati korxonalarini samarali boshqarish uchun ilmiy yondashuvlarni chuqurlashtirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda mahalliyashtirish tizimini yanada rivojlantirish zarur. Shuningdek, boshqaruv tuzilmasiga mos tarzda ishlab chiqilgan ekonometrik modellardan keng foydalanish soha faoliyatiga mavsumiy omillarning salbiy ta'sirini kamaytiradi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va korxonalarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston oziq-ovqat sanoatida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni va ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi yildan-yilga izchil oshib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2014–2024-yillar davomida oziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Jumladan, 2014–yilda ushbu ko'rsatkich 21 527,8 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024–yilga kelib 145 011,6 milliard so'mga yetgan (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda oziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishining rivojlanish dinamikasi¹

Ko'rsatkichlar	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, mlrd so'm	21527,8	28614,1	33868,5	42085,5	48253,8	59690,4	83512,6	101417,5	129348,6	155159,1	145011,6
Aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, ming so'm	723,0	946,1	1101,1	1344,6	1515,1	1842,9	2534	3028,3	3778,6	4443,8	4067,8
Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish o'sish sur'ati, %	107,9	109,4	109,4	109,7	106,0	106,7	114,7	115,6	105,7	113,9	120,7
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, mlrd so'm	8516,4	11460,7	18154,6	18154,6	21970,3	23305,7	24053,2	29687,3	44014,1	55327,3	60474,7

2014–2024-yillar oralig'ida iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning yillik o'sish sur'ati 2014–yilda 107,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024–yilga kelib bu ko'rsatkich 120,7 foizga yetgan. Ushbu dinamik o'sish aholining turmush darajasi, daromadlari va xarid qobiliyati izchil oshib borayotganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish mamlakat iqtisodiy o'sishini jadallashtirishda, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda va milliy raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2014–2024-yillar davomida qariyb sakkiz baravar oshgan bo'lib, yillik o'sish sur'ati o'rtacha 9,74 foizni tashkil etgan.

2014–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoati bo'yicha rasmiy ro'yxatga olingan, faoliyat yuritayotgan hamda tugatilgan korxonalar soni, shuningdek ularning faollik indeksi va bankrotlik indeksi to'g'risidagi statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2014–yilda faoliyatini yangi tashkil etgan korxonalar soni 7 594 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024–yilga kelib bu ko'rsatkich 23 712 taga yetgan. Ushbu o'sish tadbirkorlik faoliyatining faollashgani, yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushgani va oziq-ovqat mahsulotlariga ichki hamda tashqi talab ortganini ko'rsatadi.

2024–yil holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarish sanoati rivojlanishida hududlar kesimida sezilarli tafovutlar mavjud. Eng yuqori ulush Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, u 19,7 foizni tashkil etadi. Keyingi o'rinlarda Toshkent viloyati (17,5 foiz) va Navoiy viloyati (14,8 foiz) joylashgan. Bu holat mazkur hududlarda sanoat infratuzilmasi va ishlab chiqarish quvvatlarining yuqori darajada rivojlanganini ifodalaydi.

Hududlararo tahlil shuni ko'rsatadiki, Surxondaryo, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida ishlab chiqarish sanoatining ulushi nisbatan past bo'lsa-da, bu hududlarda so'nggi yillarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha yangi loyihalar amalga oshirilmoqda (2-jadval).

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining ma'lumotlari asosida tayyorlangan.



2-jadval. O'zbekiston Respublikasida 2024–yilda ishlab chiqarish sanoati tarkibida hududlarning ulushi, foizda (%)²

Hududlar	Jami	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Andijon	Buxoro	Jizzax	Qashqadaryo	Navoiy	Namangan	Samarqand	Surxondaryo	Sirdaryo	Toshkent viloyati	Farg'ona	Xorazm	Toshkent shahri.
Ishlab chiqarish sanoati	100	3,3	11,6	5,6	2,3	3,3	14,8	3,2	6,1	1,4	1,5	17,5	6,2	3,8	19,7
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	100	4,3	5,4	6,2	2,2	5,3	3,3	5,1	13,3	2,5	3,2	16,3	7,8	6,6	18,5
Ichimliklar ishlab chiqarish	100	1,5	0,1	2,1	0,1	1,0	0,1	3,3	1,7	0,2	0,3	11,9	0,5	6,9	70,2
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	100	4,3	5,4	6,2	2,2	5,3	3,3	5,1	13,3	2,5	3,2	16,3	7,8	6,6	18,5

Oziq-ovqat sanoatining muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan ichimliklar ishlab chiqarish sohasi asosan Toshkent shahri va Toshkent viloyatida rivojlangan bo'lib, mamlakat bo'yicha ishlab chiqarilayotgan ichimliklarning 82,1 foizi aynan shu ikki hudud hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa poytaxt va unga tutash hududlarda logistika, transport, texnologik baza va iste'mol bozori imkoniyatlarining keng ekanini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Toshkent shahri (18,5 foiz) va Samarqand viloyati (13,3 foiz) yetakchi o'rinni egallamoqda. Bu holat mazkur hududlarda sanoat diversifikatsiyasi, ishlab chiqarish tajribasi va ichki bozor talabi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, olib borilgan statistik tahlillar oziq-ovqat sanoatining hududiy tarkibi va ishlab chiqarish dinamikasi izchil rivojlanib borayotganini, tarmoqning barqaror o'sish salohiyatini namoyon etayotganini ko'rsatadi.

O'zbekistonda 2014–2024-yillar davomida o'tkazilgan statistik tahlillar oziq-ovqat sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar bozorida bir qator ijobiy tendensiyalarni aniqlash imkonini berdi.

1. Yalpi ichki mahsulotdagi ijobiy o'sish:

Mamlakatning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichi — yalpi ichki mahsulot (YalIM) va uning tarkibidagi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi hamda sifati barcha iqtisodiy faoliyat turlari bilan parallel ravishda izchil o'sib borgan.

2. Sanoat tarkibidagi ulush dinamikasi:

Oziq-ovqat sanoati tomonidan ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi qiymat jihatidan ortib borayotgan bo'lsa-da, ishlab chiqarish sanoati umumiy tarkibidagi ulushi 2014–2024-yillar davomida 19,4 foizdan 12,9 foizgacha pasaygan. Bu holat tarmoqning diversifikatsiyalanib borayotganini, boshqa tarmoqlarning ham jadal rivojlanayotganini anglatadi.

3. Mahsulot hajmining keskin o'sishi:

Oziq-ovqat sanoati korxonalari tomonidan tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmi ko'rilgan davr mobaynida 7 martadan ortiq oshgan. Bu esa ishlab chiqarish quvvatlarining kengaygani, texnologik modernizatsiya va innovatsiyalar joriy etilgani bilan izohlanadi.

4. Korxonalar sonining o'sishi:

Oziq-ovqat sanoati tarmog'idagi korxonalar soni 2014–yilda 6 574 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022–yilda ularning soni 22 154 taga yetgan. Bu raqamlar sohada tadbirkorlik muhitining yaxshilanayotganini va investitsion jozibadorlik ortib borayotganini ko'rsatadi.

5. Hududiy o'sish tafovutlari:

2014–2024-yillar oralig'ida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Samarqand viloyatida yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'lgan. Surxondaryo, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida esa o'sish nisbatan past bo'lsa-da, bu hududlarda so'nggi yillarda yangi ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilmoqda va iqtisodiy faollik izchil ortib bormoqda.

2 O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.



6. Boshqaruv samaradorligini oshirish:

Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini samarali tashkil etishda mavjud muammolar tarmoqning raqobatbardoshligini yanada kuchaytirish zaruratini ko'rsatmoqda. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan agrar soha samaradorligini oshirish va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi negizida Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish bosh boshqarmasi tashkil etildi. Ushbu boshqarma 12 ta shtat birligidan iborat bo'lib, tarmoqni strategik rejalashtirish, investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirish va samaradorlikni oshirish bilan shug'ullanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan iqtisodiy islohotlar va rivojlanish tendensiyalari shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiy sektorida oziq-ovqat mahsulotlarini yanada keng assortimentda va yuqori hajmda ishlab chiqarish uchun chuqur tarkibiy islohotlar va ilmiy asoslangan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, bir tomondan, oziq-ovqat sanoati korxonalarini boshqarishning ilmiy asoslangan usullarini takomillashtirish zarurati, ikkinchi tomondan, mazkur muammoning ilmiy va amaliy ahamiyati tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat sanoati so'nggi o'n yillikda milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biriga aylandi. 2014–2024-yillar oralig'ida sohada ishlab chiqarish hajmi qariyb sakkiz baravar ortib, yalpi ichki mahsulotdagi ulushi va bandlik darajasiga ta'siri sezilarli darajada oshgan. Ushbu o'sish, bir tomondan, texnologik modernizatsiya, innovatsion faoliyatni kengaytirish va investitsiya muhitining yaxshilanishi bilan izohlanadi; ikkinchi tomondan, davlat tomonidan olib borilayotgan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va eksportni diversifikatsiya qilish siyosati natijasidir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat sanoati korxonalarining soni, ishlab chiqarish hajmi hamda hududiy tarkibi bo'yicha barqaror ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Ayniqsa Toshkent shahri, Toshkent va Samarqand viloyatlari mamlakatdagi yetakchi sanoat markazlariga aylangan. Shu bilan birga, Surxondaryo, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida yangi loyihalar joriy etilishi natijasida sanoat tarmoqlarining hududiy muvozanati asta-sekin tiklanmoqda. Biroq, oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarish sanoatidagi umumiy ulushining 19,4 foizdan 12,9 foizgacha kamaygani tarmoqda diversifikatsiya jarayonlari kuchayganini, ya'ni boshqa sanoat tarmoqlarining ham jadal rivojlanayotganini anglatadi. Bu holat, o'z navbatida, oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini saqlab qolish va texnologik yangilanishni jadallashtirish zaruratini ko'rsatadi. Shu bois, tarmoqni ilmiy asosda boshqarish tizimini takomillashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarining mavsumiy ta'sirini kamaytiruvchi va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlovchi ekonometrik modellarni joriy etish zarur. Hududiy ishlab chiqarish quvvatlarini muvozanatli rivojlantirish maqsadida Toshkent, Navoiy va Samarqand viloyatlaridagi ishlab chiqarish tajribasi asosida boshqa viloyatlarda, ayniqsa Surxondaryo, Sirdaryo va Jizzaxda oziq-ovqat klasterlarini yaratish lozim. Bu mintaqaviy iqtisodiy tenglikni ta'minlaydi va ichki logistika xarajatlarini kamaytiradi. Shu bilan birga, oziq-ovqat sanoatida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari (R&D)ga e'tibor qaratish, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari va "smart agriculture" yechimlarini joriy etish raqobatbardoshlikni oshiradi. O'zbekiston mahsulotlarini xalqaro sifat standartlariga moslashtirish, brendlash va sertifikatlash tizimini kuchaytirish orqali yangi bozorlarni egallash imkoniyati kengayadi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropa bozorlariga yo'naltirilgan mahsulot turlari ishlab chiqilishi lozim. Davlat-xususiy sheriklik (PPP) asosida investitsiya loyihalarini kengaytirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, sovetlash va saqlash tizimlarini modernizatsiya qilish uchun xususiy kapitalni jalb etish mexanizmlarini soddalashtirish va kafolatli kredit liniyalarini kengaytirish zarur. Oziq-ovqat sanoati uchun zamonaviy texnologiyalarni biladigan, boshqaruv va marketing ko'nikmalariga ega mutaxassislar tayyorlash oliy ta'lim tizimi oldidagi dolzarb vazifadir. Shu bois, ta'lim muassasalarida "Agro-food management" va "Food technology innovation" kabi yo'nalishlarni kengaytirish maqsadga muvofiq. Ishlab chiqarish jarayonlarida chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish, energiya tejovchi uskunalardan foydalanish va suv resurslarini tejash bo'yicha qat'iy me'yorlar belgilanishi ham zarur. Bu nafaqat ekologik xavfsizlikni, balki xalqaro bozor talablariga muvofiqlikni ham ta'minlaydi. Umuman olganda, oziq-ovqat sanoati mamlakat iqtisodiyotining asosiy drayverlaridan biri sifatida barqaror o'sish, eksport salohiyatining ortishi va oziq-ovqat xavfsizligining mustahkamlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bois, yuqoridagi takliflarni izchil amalga oshirish O'zbekistonni iqtisodiy jihatdan mustahkam va raqobatbardosh davlat sifatida yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Desai, M., Gompers, P., & Lerner, J. (2003). Institutions, Capital Constraints, and Entrepreneurial Firm Dynamics: Evidence from Europe. Harvard HOM Research Paper, No. 59.
2. Kolsa, R. P., & Yula, J. N. (2007). Food Marketing. USA: McGraw-Hill, p. 44.



3. Kudryashova, A. A., & Presnyakova, O. P. (2010). *Prodovolstvennaya bezopasnost: Teoreticheskiye osnovy i mekhanizmy obespecheniya*. Moskva: Ekonomika.
4. Umarov, I. Yu. O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish salohiyati. *Ekonomika va innovatsion texnologiyalar jurnali*, 2022-yil. DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss3/a25.
5. Abdullaev, A. G. (2017). *Oziq-ovqat sanoati rivojlanishi va joylanishining iqtisodiy-geografik xususiyatlari (Xorazm viloyati misolida)*. Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: FZMU, 44 b.
6. Sotvoldiev, N. J. (2017). *Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi va uning ilmiy-nazariy konsepsiyasi*. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, № 6, noyabr–dekabr, 8 b.
7. Turgunov, M. (2021). State and Prospects of the Republic of Uzbekistan in International Ratings of Innovation Development. *Theoretical & Applied Science*, № 7, pp. 37–42.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>